Abstract. *This article analyzes the national and international legal foundations of criminal liability for war crimes in the context of modern armed conflicts. The study examines the interaction between international criminal law and national criminal legislation, the criminalization of war crimes, the inevitability of punishment, the principle of legality, universal jurisdiction, the non-application of statute of limitations, and the institutions of command responsibility. Additionally, international court decisions, doctrinal sources, and the role of national legal norms in law enforcement practice will be evaluated, and scientific and practical proposals will be put forward to improve the legislation of the Republic of Uzbekistan in accordance with international humanitarian law and international criminal law standards.*

Keywords: *war crimes, international criminal law, national criminal law, international humanitarian law, universal jurisdiction, principle of legality, command responsibility, Rome Statute*

Kirish

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy jarayonlar, turli mintaqalardagi qurolli mojarolar, inson huquqlari hamda xalqaro gumanitar huquq normalarining ommaviy buzilishi harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik masalasini yanada dolzarb qilib qo'ymoqda. Yaqin Sharq, Sharqiy Yevropa va boshqa mintaqalardagi to'qnashuvlar, shuningdek, sun'iy intellektga asoslangan qurol tizimlari, kiberhujumlar va uchuvchisiz qurilmalardan foydalanish harbiy harakatlar usul va vositalarini tubdan o'zgartirmoqda. Bunday sharoitda harbiy jinoyatlarning oldini olish, ularni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va aybdorlarni javobgarlikka tortish nafaqat xalqaro hamjamiyat, balki har bir davlatning, jumladan, O'zbekiston Respublikasining ham ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Harbiy jinoyatlar insoniyatning tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan eng og'ir qilmishlar sirasiga kiradi. Shu sababli ularni kriminalizatsiya qilishda, jinoiy ta'qib qilishda va jazoni belgilashda xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro gumanitar huquq hamda milliy jinoyat huquqi normalari o'zaro uyg'un holda amal qilishi lozim. Mazkur maqolaning maqsadi harbiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikning nazariy-metodologik asoslarini, xalqaro va milliy huquq manbalarining nisbatini, qonuniylik, universal yurisdiksiya, eskirish muddatlarining qo'llanilmasligi hamda qo'mondonlik javobgarligi kabi institutlarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli-huquqiy, qiyosiy-huquqiy, formal-yuridik va xalqaro-huquqiy tahlil usullari tashkil etadi. Maqolada xalqaro shartnomalar, xalqaro odat normalari, doktrinal yondashuvlar, xalqaro sudlov organlari amaliyoti va O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi. Bunday yondashuv mavjud huquqiy bo'shliqlarni aniqlash, xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish hamda huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Asosiy qism

Harbiy jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik xalqaro jinoyat huquqida nazarda tutilgan bo'lib, u mazkur qilmishlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan kelib chiqadigan jinoiy-huquqiy oqibatlarni ifodalaydi. Bunda jinoyat tarkibining belgilari, javobgarlikning asoslari, sanksiyalar va protsessual ta'qib mexanizmlari xalqaro va milliy huquqning o'zaro ta'siri orqali namoyon bo'ladi. Moddiy jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan harbiy jinoyatlarning turlari, ularning obyektiv va subyektiv belgilari, shuningdek, bunday jinoyatlarni sodir etganlik uchun qo'llaniladigan ta'sir choralari aniq va tushunarli belgilanishi zarur.

Shuni alohida qayd etish zarurki, harbiy jinoyatlar insoniyatning tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar toifasiga kiradi, shu munosabat bilan ularni kriminalizatsiya qilish va sodir etganlik uchun jazo belgilashda xalqaro jinoyat

huquqi ustuvorlikka ega (Trikoz, 2007, pp. 37–38; Werle, 2011, pp. 56–57). Ushbu yondashuv 1996-yilda Xalqaro huquq komissiyasining 48-sessiyasida qabul qilingan Insoniyatning tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyatlar kodeksi loyihasining 1-moddasi 2-bandida, shuningdek, milliy va xorijiy xalqaro huquq fanida o'z asosini topgan. Shu bilan birga, mazkur ustuvorlik ko'rib chiqilayotgan sohada davlatlar va milliy huquqiy tizimlarning rolini yo'qqa chiqarmaydi.

Xalqaro jinoyat huquqi nisbatan yosh va jadal rivojlanayotgan huquq sohasi bo'lib, uning ayrim institutlari, xususan, sanksiyalar tizimi, milliy huquqiy tizimlarning ta'siri va huquqni qo'llash mexanizmlari hali ham doktrinal va amaliy jihatdan takomillashtirilishni talab qiladi (Umarkhanova & Ochilov, 2019). Shunga qaramay, ushbu soha jismoniy shaxslarning xalqaro jinoyatlar uchun javobgarligini belgilash, davlatlar hamkorligini tashkil etish va xalqaro odil sudlov mexanizmlarini ishga solishda markaziy o'rin egallaydi.

Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik masalasi-da xalqaro huquq manbalarini to'g'ri aniqlash nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Formal-yuridik ma'noda xalqaro jinoyat huquqi manbalari xalqaro shartnoma, xalqaro odat va ayrim hollarda xalqaro tashkilotlar qarorlarida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda xalqaro huquq normalarining yaratilish mexanizmini tushuntirib beruvchi davlatlar irodasini muvofiqlashtirish nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi (Kalamkaryan & Migachev, 2015). Ushbu yondashuv zamonaviy xalqaro jinoyat huquqi manbalarini tavsiflashda ham qo'llab-quvvatlanadi (Umarkhanova & Sayapin, 2020).

Xalqaro jinoyat huquqida xalqaro shartnoma va unda ifodalangan imperativ normalar alohida o'ringa ega. Adabiyotlarda bu holat harbiy jinoyatlarning aniq belgilarini belgilash, qilmishni kriminalizatsiya qilish va jazo choralarini qonuniy asoslash zarurati bilan izohlanadi (Matkariyeva, 2007). Zero jinoyat doimo aniq huquqiy taqiqni buzish orqali sodir etiladi, degan yondashuv qonuniylik prinsipining markaziy mazmunini tashkil etadi. Ushbu o'rinda ayrim xorij olimlarining jinoyat doimo aniq huquq normasini buzadigan qilmish orqali sodir etiladi, degan qat'iy pozitsiyasi bahsli hisoblanadi. Fikrimizcha, xalqaro jinoyat huquqida, ayniqsa harbiy jinoyatlar kontekstida, har doim ham aniq yozilgan norma mavjud bo'lavermaydi (Kibalnik, 2013). Xalqaro

odat va umumiy tamoyillar ko'pincha yozilmagan bo'lsa-da, jinoiy javobgarlik uchun mustahkam asos vazifasini o'taydi. Shuning uchun qonuniylik tamoyilini faqat pozitiv huquq doirasida cheklab qo'yish zamonaviy xalqaro jinoyat huquqining moslashuvchanligini pasaytirishi mumkin.

Binobarin, jinoyat (shu jumladan, harbiy jinoyat) sifatida qaraladigan qilmishning belgilari, shuningdek, uni sodir etganlik uchun jinoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatish shakllari va hajmi, jinoyat huquqining umume'tirof etilgan *nullum crimen sine lege – nulla poena sine lege* (qonunda ko'rsatilmasa – jinoyat ham, jazo ham yo'q) prinsipidan kelib chiqqan holda, normativ jihatdan belgilanishi kerak. Xalqaro huquqiy tizimda aynan xalqaro shartnoma va uning yozma huquq (*jus scriptum*) ustunliklariga ega bo'lgan, o'z mazmunining aniqligi va barqarorligi bilan bog'liq normalari huquqni qo'llovchi uchun qonuniylik rejimini ta'minlashga qodir. Bundan tashqari, xalqaro shartnomalar shartnomaviy, shuningdek, odatiy normalarni tizimlashtirish va kodifikatsiya qilishga xizmat qilishi mumkin. Ko'rib chiqilayotgan sohada (umuman xalqaro huquqda bo'lgani kabi) xalqaro shartnoma va xalqaro odatning o'zaro ta'siri hamda shartnomaviy va odatiy normalarning o'zaro uyg'unlashuvi kuzatiladi: Nyurnberg xalqaro harbiy tribunali ustavi prinsiplarining umumiy e'tirof etilishi, keyinchalik 1949-yilgi Urush qurbonlarini himoya qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyalarida davlatlarning harbiy jinoyatlarni sodir etishda aybdor shaxslarni o'z milliy qonunchiligiga muvofiq ta'qib qilish yoki ularni ushlab berish majburiyatining belgilanishi hamda keyinchalik xalqaro hamjamiyatga a'zo davlatlarning ushbu xalqaro majburiyati *erga omnes* (barcha uchun majburiy) xususiyatiga ega ekanligining tan olinishi bunga misol bo'la oladi (Eliseev, 2011).

Sud qarorlari, doktrina va milliy huquqning yordamchi ahamiyati. Xalqaro sudlarning qarorlari, umumiy qoidaga ko'ra, xalqaro huquq normalarini yaratmaydi. Biroq istisno tariqasida va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, Yevropa Ittifoqi sudining qarorlari Ylning ta'sis hujjatlariga asosan Yevropa huquqining manbalari hisoblanadi, chunki ishtirokchi davlatlar bunga o'z roziliklarini bergan. BMT Xalqaro sudi statutining 38-moddasi 1-bandi "d" kichik bandiga muvofiq, umume'tirof etilgan qoida shundaki,

sud qarorlari va turli millatlarning eng malakali ommaviy huquq mutaxassislarining doktrinalari Xalqaro sud tomonidan huquqiy normalarni aniqlashda yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan (Biryukov, 2013; Kalamkaryan, & Migachev, 2013).

Xalqaro jinoiy odil sudlov organlarining amaliyoti harbiy jinoyatlar tarkibini talqin qilish, jinoiy javobgarlik chegaralarini belgilash va xalqaro odat normalarini aniqlashda katta amaliy qiymatga ega. Shu bilan birga, xalqaro sudlar yangi norma yaratish vakolatiga ega emas. Ularning qarorlari pretsedent sifatida emas, balki xalqaro shartnoma va odat normalarini rasmiy yoki huquqiy jihatdan asoslangan talqin qilish vositasi sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Milliy qonunchilik va milliy sud qarorlari ham xalqaro jinoyat huquqining formal manbai sifatida baholanmaydi, chunki ular tegishli davlatning ichki huquqiy tizimiga mansubdir (Klenova, 2014). Biroq ular xalqaro jinoyat huquqining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi, umumiy huquq prinsiplarini aniqlashda yordam berishi va milliy implementatsiya orqali xalqaro majburiyatlarni amalga oshirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin (Oblakulov & Mustanov, 2013).

Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida harbiy jinoyatlarga oid normalarni xalqaro standartlarga moslashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Milliy huquq xalqaro normalarni mexanik tarzda ko'chirib olmasdan, balki ularni milliy huquqiy tizim mantig'i, konstitutsiyaviy asoslar va jinoyat huquqi prinsiplari bilan uyg'unlashtirgan holda qabul qilishi lozim. Bu, bir tomondan, xalqaro majburiyatlarni bajarishga; ikkinchi tomondan esa huquqni qo'llashda aniqlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Javobgarlik normalarining vaqt, makon va shaxslar doirasida amal qilishi. Shu bilan birga, ko'rib chiqilayotgan normalarning vaqtga oid xususiyatlarini tavsiflar ekanmiz, avvalo, ularning insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi jinoyatlarning (shu jumladan, harbiy jinoyatlarning) oldini olish bilan bog'liq holda vaqt jihatidan cheklanmagan holda amal qilishi mumkinligini, shuningdek, mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy ta'qib qilish va jazolashda eskirish muddati qoidasi qo'llanilmasligini qayd etish lozim. Harbiy jinoyatlarga nisbatan

eskirish muddatlarini qo'llamaslik qoidasi Ikkinchi jahon urushidan keyin bir qator davlatlar tomonidan xalqaro huquqning odatiy normasi sifatida qo'llanildi, milliy huquqda o'z tasdig'ini topdi, so'ngra Harbiy jinoyatlarga va insoniyatga qarshi jinoyatlarga nisbatan eskirish muddatini qo'llamaslik to'g'risidagi konvensiya orqali shartnomaviy tartibda belgilandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra, xususan, Jinoyat kodeksining 64-moddasi 7-qismida tinchlik va insoniyatning xavfsizligiga qarshi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlikka tortish muddatlarining o'tishi qo'llanilmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan bo'lib, bu xalqaro huquq normalarining milliy qonunchiligimizdagi bevosita inkorporatsiyasidir. Qayd etish lozimki, hozirgi vaqtda yuqoridagi konvensiya ishtirokchilari 50 dan ortiq davlatni tashkil etadi, shu bilan birga, ushbu prinsip konvensiya ishtirokchilari bo'lmagan ko'plab boshqa davlatlarning (masalan, Germaniyaning 2002-yilgi Xalqaro jinoyatlar to'g'risidagi jinoyat kodeksi) qonunchiligida ham qat'iy mustahkamlangan. Xalqaro jinoyat sudining Rim statuti o'zining 29-moddasida sud yurisdiksiyasiga tushadigan birorta ham jinoyatga nisbatan eskirish muddati qo'llanilmasligini belgilaydi; harbiy jinoyatlarga nisbatan yurisdiksiya statutining 5-moddasida nazarda tutilgan.

Xalqaro huquqda xalqaro shartnomalarning orqaga qaytish kuchiga ega emasligi (neretroaktivlik) prinsipi shakllangan va amal qilmoqda, shunga muvofiq, xalqaro jinoyat huquqida u bilan bog'liq bo'lgan hamda qonuniylikning umume'tirof etilgan prinsipidan kelib chiqadigan *ex post facto postulati* (amaldagi xalqaro shartnoma normalarini ilgari sodir etilgan xalqaro jinoyatlarga nisbatan qo'llamaslik) bosqichmabosqich mustahkamlanib bormoqda (Yuldasheva, 2024). Xalqaro odat sifatida shakllangan va keyinchalik 1969-yilgi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 28-moddasida o'z aksini topgan mazkur qoida xalqaro huquq fani vakillari tomonidan doim yuqori baholanadi. Xalqaro jinoiy sudlov amaliyotida jinoyatlarni kvalifikatsiya qiluvchi va ular uchun jazoni belgilovchi moddiy normalar orqaga qaytish kuchiga ega bo'lgan holatlar kuzatilgan. Tarixiy misol sifatida, Nyurnberg va Tokio xalqaro harbiy tribunallari (XHT) ustav-

larining moddiy normalari keltiriladi. Xususan, Nyurnberg XHT tomonidan sudlanuvchilar sodir etgan harbiy jinoyatlarni ko'rib chiqishda sudlanuvchilarning himoyachilari urush qonunlari va odatlarini buzish xalqaro jinoyat emasligini va sud ta'qibiga olinmasligini ta'kidladilar, ammo tribunal 1907-yilgi Gaaga va 1929-yilgi Jeneva konvensiyalariga tayanib, ushbu normalarning buzilishi alohida shaxslar jazolanishi lozim bo'lgan jinoyat ekanligini qat'iy belgilagan edi. Biroq XHT tashkil etilgan va faoliyat ko'rsatgan vaziyatning istisnoli ekanligini, Ikkinchi jahon urushining asosiy harbiy jinoyatchilari tomonidan buyruqqa (davlat siyosati doirasida) binoan sodir etilgan yovuzliklarning ochiq-oydin xususiyatini tan olish lozim.

Rim statutining 29-moddasi ham Sud yurisdiksiyasiga kiruvchi jinoyatlarga nisbatan eskirish muddati qo'llanilmasligini nazarda tutadi.

Shuni ham inobatga olish kerakki, aksariyat hollarda xalqaro jinoiy odil sudlov organlari (*ad hoc* xalqaro tribunallar, shuningdek, internatsionallashtirilgan sudlar) jinoiy qilmishlarni (shu jumladan, harbiy jinoyatlarni) kvalifikatsiya qilishda nafaqat shartnomaviy, balki xalqaro huquqning odatiy normalariga ham tayanadilar. Xususan, Syerra-Leone bo'yicha maxsus sud tomonidan 15 yoshga to'lmagan bolalarni qurolli kuchlarga chaqirish va yollashga doir ishlardan biri ko'rib chiqilayotganda (ushbu jinoyat sud ustavining 4-moddasiga ko'ra xalqaro gumanitar huquqning jiddiy buzilishi hisoblanadi) himoya tomoni maxsus sudning mazkur jinoyatlarga nisbatan yurisdiksiyasini shubha ostiga olishga uringan.

Makon bo'yicha amal qilishda universal yurisdiksiya prinsipi alohida o'rin tutadi. Unga ko'ra, harbiy jinoyatni sodir etgan shaxs jinoyat sodir etilgan hudud yoki fuqaroligidan qat'i nazar, jinoiy ta'qib qilinishi mumkin. Bu qoida "sud qil yoki topshir" mazmunidagi xalqaro majburiyat bilan bog'liq bo'lib, davlatlardan harbiy jinoyat sodir etgan shaxslarni jazodan qochirmaslikni talab qiladi. Shuningdek, bunday shaxslar boshpana huquqiga tayana olmasligi haqidagi qoida ham jazoning muqarrarligi prinsipidan kelib chiqadi.

Shaxslar doirasi bo'yicha xalqaro jinoyat huquqida javobgarlik subyekti, odatda, jismoniy shaxs hisoblanadi. Rasmiy lavozim, davlat rahbari yoki yuqori mansabdor shaxs maqomi harbiy

jinoyat uchun javobgarlikdan ozod etuvchi holat sifatida qaralmaydi. Shu bilan birga, milliy sudlar xalqaro jinoyat huquqi normalarini to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun milliy qonunchilikda zarur moddiy va protsessual mexanizmlar yaratilgan bo'lishi shart (Miruktamova, 2024).

Shuni ham yodda tutish kerakki, xalqaro jinoiy odil sudlov institutlari yurisdiksiyasining vaqt, makon va shaxslarga oid chegaralari ular tashkil etiladigan va faoliyat yuritadigan xalqaro shartnomalar (xalqaro huquqning boshqa hujjatlari) normalari bilan belgilanadi. Xususan, Xalqaro jinoyat sudining yurisdiksiyasi umumiy qoidaga ko'ra faqat Rim statutida ishtirok etuvchi davlat yoki muayyan holatda sudning yurisdiksiyasini tan olgan davlat hududida yoxud uning fuqarosi tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bilan (ularning ro'yxati Rim statutining 5-moddasida keltirilgan bo'lib, o'z ichiga harbiy jinoyatlarni ham oladi) cheklanadi (XJS statuti 12-moddasining 2-, 3-bandlari). Bundan tashqari, boshqa ayrim (umuman olganda favqulodda) vaziyatlar ham bo'lishi mumkin: masalan, BMT nizomining VII bobiga muvofiq, BMT Xavfsizlik Kengashi vaziyatni ko'rib chiqish uchun sudga o'tkazganida (statut 13-moddasining "b" bandi) (Special Court for Sierra Leone, 2004).

Qo'mondonlik javobgarligi va zamonaviy harbiy texnologiyalar. Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikning muhim institutlaridan biri qo'mondonlik javobgarligidir. Ushbu institut qo'l ostidagi shaxslar tomonidan sodir etilayotgan yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan harbiy jinoyatlarning oldini olish imkoniga ega bo'lgan, biroq zarur choralarni ko'rmagan komandirlar va boshliqlarning javobgarligini nazarda tutadi. Bu yerda javobgarlik faqat bevosita ijrochilar bilan cheklanmaydi; harbiy iyerarxiyada nazorat va buyruq berish vakolatiga ega shaxslarning huquqiy mas'uliyati ham hisobga olinadi.

Zamonaviy qurolli mojarolarda qo'mondonlik javobgarligi yangi mazmun kasb etmoqda. Dronlar, avtonom qurol tizimlari, kiberhujumlar va sun'iy intellektga asoslangan qaror qabul qilish mexanizmlari jang maydonida inson omilining o'rnini qisman o'zgartirmoqda. Biroq texnika yoki algoritmdan foydalanish insonning jinoiy javobgarligini istisno etmaydi. Aksincha, bunday holatlarda kim qaror qabul qilgani, kim nazorat

qilgani, kim xavfni oldindan bilgani yoki bilishi lozim bo'lgani masalalari yanada aniqroq huquqiy tartibga solinishi talab etiladi.

Shu sababli milliy qonunchilikda zamonaviy qurol tizimlari yordamida tinch aholiga, fuqarolik obyektlariga yoki xalqaro gumanitar huquq bilan himoyalangan shaxslarga qarshi hujumlar sodir etilishi holatlarini kvalifikatsiya qilish uchun aniq mezonlar ishlab chiqilishi lozim. Bu jarayonda xalqaro gumanitar huquqning farqlash, mutanosiblik va ehtiyot choralari ko'rish prinsiplari milliy jinoyat qonunchiligi bilan uzviy bog'lanishi zarur.

O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish yo'nalishlari. Tahlillar harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni ta'minlashda milliy qonunchilikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xalqaro normalar qanchalik mukammal bo'lmasin, ularning amaliy samarasi davlatlarning ichki huquqiy tizimida to'g'ri implementatsiya qilinganiga bog'liq. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va tegishli sohaviy qonunchilikda harbiy jinoyatlarning tarkibi, tergov qilish tartibi, yurisdiksiya asoslari va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yanada aniqlashtirish zarur.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida harbiy jinoyatlarga oid normalarni Rim statuti, 1949-yilgi Jeneva konvensiyalari va ularning qo'shimcha protokollariga muvofiq tizimlashtirish kerak. Bunda xalqaro normalarni so'zma-so'z ko'chirish emas, balki ularni milliy huquqiy tizim, jinoyat huquqi prinsiplari va konstitutsiyaviy kafolatlar bilan uyg'unlashtirilgan holda implementatsiya qilish zarur.

Ikkinchidan, eskirish muddatlarining qo'llanilmasligi to'g'risidagi qoida umumiy "tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar" formulasi bilan cheklanib qolmasdan, harbiy jinoyatlarning aniq turlari kesimida ham ochiq va tushunarli ifodalanishi lozim. Bu huquqni qo'llovchi organlar uchun aniqlik yaratadi hamda jazoning muqarrarliligi prinsipini amalda ta'minlashga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Jinoyat-protsessual kodeksida universal yurisdiksiyani amalga oshirish mexanizmi alohida protsessual normalar orqali ochib berilishi kerak. Jinoyat qayerda sodir etilgani, jabrlanuvchi yoki ayblanuvchining fuqaroligi qanday bo'lishidan qat'i nazar, harbiy jinoyatlar

bo'yicha tergov boshlash, dalillarni to'plash, xalqaro huquqiy yordam so'rash, ushlab berish yoki xalqaro sudlov organlari bilan hamkorlik qilish tartibi aniq belgilanishi lozim.

To'rtinchidan, qo'mondonlik javobgarligi institutini milliy jinoyat huquqiga kiritish zarur. Bu institut Jinoyat kodeksining Umumiy qismida alohida modda sifatida yoki javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat tarzida mustahkamlanishi mumkin. Mazkur norma komandir yoki boshliqning bilgani, bilishi lozim bo'lgani, nazorat qilish imkoniga ega bo'lgani va zarur choralarni ko'rmagani kabi mezonlarni o'z ichiga olishi kerak.

Beshinchidan, xalqaro tribunallar va Xalqaro jinoyat sudi huquqiy pozitsiyalaridan milliy sudlar tomonidan pretsedent sifatida emas, balki xalqaro shartnoma va odat normalarini talqin qilishda yordamchi vosita sifatida foydalanish amaliyotini kengaytirish lozim. Bu borada Oliy sud Plenumining xalqaro gumanitar huquq normalarini qo'llash amaliyoti yuzasidan maxsus qarorini qabul qilish maqsadga muvofiq.

Oltinchidan, zamonaviy qurolli mojarolar tabiati o'zgarayotganini inobatga olib, sun'iy intellektga asoslangan avtomatik qurol tizimlari, uchuvchisiz apparatlar va kibervositalar yordamida tinch aholiga yoki fuqarolik obyektlariga qilingan hujumlarni harbiy jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilish imkonini beruvchi normalar ishlab chiqilishi lozim. Bu kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy bo'shliqlarni oldindan bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa

Zamonaviy qurolli mojarolar sharoitida harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni ta'minlash xalqaro jinoyat huquqi, xalqaro gumanitar huquq va milliy jinoyat qonunchiligining uzviy uyg'unligini talab etadi. Harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikning asosiy maqsadi faqat aybdorlarni jazolash emas, balki bunday jinoyatlarning oldini olish, qurolli mojarolar davrida inson qadr-qimmati va fundamental huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Xalqaro jinoyat huquqining manbalari sifatida xalqaro shartnoma va xalqaro odat alohida ahamiyatga ega bo'lsa, sud qarorlari, doktrina va milliy qonunchilik huquqni bilish, talqin qilish va rivojlantirishda yordamchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Qonuniylik prinsipi, jazoning muqarrarliligi, universal yurisdiksiya, eskirish

muddatlarining qo'llanilmasligi, rasmiy maqomga tayanishning mumkin emasligi va qo'mondonlik javobgarligi harbiy jinoyatlar uchun javobgarlik tizimining asosiy ustunlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi uchun asosiy vazifa xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka izchil, aniq va amaliy jihatdan samarali implemetsiya qilishdan iborat. Bu Jinoyat kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeksida harbiy jinoyatlar

tarkibini, universal yurisdiksiya mexanizmlarini, qo'mondonlik javobgarligini va zamonaviy harbiy texnologiyalar bilan bog'liq jinoiy xavflarni aniq ifodalash orqali ta'minlanishi mumkin. Shu yo'l bilan milliy huquqiy tizim xalqaro majburiyatlariga moslashadi, harbiy jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligi ta'minlanadi va insonparvarlik prinsiplarini himoya qilishning huquqiy asoslari mustahkamlanadi.

REFERENCES

- Biryukov, P. N. (2013). *Mezhdunarodnoe pravo [International Law]*. Yurayt.
- Eliseev, R. A. (2011). *Mezhdunarodnoe ugodovnoe pravo: Osobennosti pravorealizatsii [International Criminal Law: Features of Legal Implementation]* (Doctoral dissertation). Moscow State Law Academy.
- Kalamkaryan, R. A., & Migachev, Yu. I. (2013). *Mezhdunarodnoe pravo [International Law]*. Yurayt.
- Kalamkaryan, R. A., & Migachev, Yu. I. (2015). Mezhdunarodnaya normativnaya sistema kak institutsionno-pravovaya sostavlyayushchaya sovremennogo miroponyadka [The international normative system as an institutional and legal component of the modern world order]. *State and Law*, 6, 65–68.
- Kibalnik, A. G. (2013). *Vvedenie v mezhdunarodnoe ugodovnoe pravo [Introduction to International Criminal Law]*. In *Mezhdunarodnoe ugodovnoe pravo [International Criminal Law]* (pp. 37–52). Yurayt.
- Klenova, T. V. (2014). *Vliyaniye natsionalnogo prava na razvitiye mezhdunarodnogo prava v usloviyakh globalizatsii prestupnosti [The Influence of National Law on the Development of International Law in the Context of Globalization of Crime]*. In *Mezhdunarodnoe ugodovnoe pravo: Aktualnye voprosy i sovremennyye problemy [International Criminal Law: Current Issues and Contemporary Problems]* (pp. 19–29). YurLitinform.
- Matkarimova, G. A. (2007). *Xalqaro jinoyat huquqi [International Criminal Law]* (I. M. Umarakhunov, Ed.). TSUL Publ.
- Miruktamova, F. L. (2024). *BMT Xalqaro sudi [International Court of Justice of the United Nations]*. TSUL Publ.
- Oblakulov, D., & Mustanov, I. (2013). *Xalqaro jinoyat huquqi [International Criminal Law]*. Adolat.
- Special Court for Sierra Leone. (2004, May 31). *Prosecutor v. Norman, decision on the preliminary motion based on lack of jurisdiction (child recruitment) (Case No. SCSL-2004-14-AR72(E))*. Refworld. <https://www.refworld.org/jurisprudence/caselaw/scsl/2004/66071>
- Trikoz, E. N. (2007). *Prestupleniya protiv mira i bezopasnosti chelovechestva: Sravnitelnyy i mezhdunarodno-pravovoy aspekty [Crimes Against Peace and Security of Humanity: Comparative and International Legal Aspects]*. YurLitinform.
- Umarxanova, D. Sh., & Ochilov, H. R. (2019). *Xalqaro jinoyat huquqi [International Criminal Law]*. TSUL Publ.
- Umarkhanova, D. Sh., & Sayapin, S. V. (2020). *Mezhdunarodnoe ugodovnoe pravo [International Criminal Law]* (B. I. Ismailov, Ed.). TSUL Publ.
- Werle, G. (2011). *Printsipy mezhdunarodnogo ugodovnogo prava [Principles of International Criminal Law]* (S. V. Sayapin, Trans.). TransLit.
- Yuldasheva, G. (2024). *Diplomatik va konsullik huquqi [Diplomatic and Consular Law]*. TSUL Publ.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2026-YIL 3-SON

VOLUME 6 / ISSUE 3 / 2026

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.6.3>.

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence>